

BADIIY ASAR TARJIMASIDA REALIYALAR

Erimbetova Shaxzada

Nukus davlat Pedagogika instituti 2-kurs tayanch doktoranti;

shaxzada.erimbetova@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18513525>

Annotatsiya: Tarjima jarayonida badiiy asarda duch keluvchi qiyinchiliklar va ularning bartaraf etilishi haqida ma'lumot beriladi. Badiiy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda realiyalar va ularning strategiyalari haqida ma'lumot keltiriladi.

Tayanch so'zlar: leksikologik ekvivalent, madaniy komponent, realiya, izohli tarjima, transliteratsiya, funksional analog topish, kontekstual moslashtirish.

Badiiy asar tarjimasida bu - ikki madaniyat o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi murakkab ijodiy jarayon bo'lib, u holda nafaqat filologiya, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, semiotika kabi fanlarning hamjihatlikda olib borilishi zarur bo'ladi. Bunday asarlar tarjimasida faqat leksikologik ekvivalentlik yetarli bo'lmasligi mumkin, ya'ni badiiy asarning ichki ruhiy-estetik kayfiyatini, muallif niyatini va jamiyatga xos tasavvurlarni ham yetkazish kerak.

Madaniy komponentlar milliy madaniyat, urf-odatlar, tarixiy voqealar, diniy qarashlar, axloqiy me'yorlar, estetik qadriyatlar va boshqa sotsiologik omillar bilan chambarchas bog'liq. Ular jamiyatning jamoaviy xotirasi va tafakkur shakllarining til orqali ifodalangan shakli bo'lib, badiiy matnning talqinida asosiy semantik baho vazifasini bajaradi. Sh.S. Safarovning fikricha, madaniy komponentlar tarjimaning kognitiv asoslari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular matnda aks etgan axborotni faqat lingvistik vositalar orqali emas, balki konseptual model va sotsiomadaniy bilimlar yordamida anglashni taqozo etadi [2:85-87]. Unga ko'ra, tarjimon bunday birliklarni idrok etishda mental modellar va aloqa kontekstiga asoslanadi, bu esa tarjima jarayonining konseptual va kognitiv xususiyatlarini yaratadi.

Tarjimon bu birliklarni faqat til birliklari sifatida emas, balki madaniyatning ko'p qatlamli belgilarini ifodalovchi diskursiv birlik sifatida qabul qilishi kerak. Madaniy komponentlar - bu tilning yuzaki sathidan chuqur semantik tarmoqqa o'tuvchi birliklardir. Ularning tarjimada yetkazilishi lingvomadaniy kompetensiya, madaniyatlararo pragmatika va uyg'un strategik yondashuvni talab etadi. Shu sababli, tarjimon matn ichidagi har bir realiya, metafora yoki frazeologizmni nafaqat semantik darajada, balki madaniy kontekstda ham chuqur tahlil qilishi kerak. Madaniy komponentlar turlarini aniqlashda tarjima nazariyasi va lingvomadaniyatshunoslikning umumiy tasniflari asosida quyidagi asosiy guruhlar ajratiladi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilarning bu komponentlarning tasnifi va tarjimadagi roli bo'yicha alohida yondashuvlarga ham ega hisoblanadi.

Realizmlar - bu boshqa madaniyatda amalda bo'lmagan yoki o'zgacha mazmunga ega bo'lgan birliklardir. Ular asosan xalq turmushiga, turmush tarziga, tarixiy sharoitlariga bog'liq bo'lgan nomlar, predmetlar, hodisalar, geografik nomlar, milliy taomlar, diniy urf-odatlar yoki folklor elementlarini o'z ichiga oladi. Masalan, qoraqalpoq tilida "sumalak," "Navro'z," "taqya," "qozon," "ro'mol" kabi birliklar ingliz tilida bevosita ekvivalentga ega emas. Yoki ingliz madaniyatida uchraydigan "Thanksgiving," "pub," "Sherlock Holmes" kabi realizmlar qoraqalpoq tilida to'g'ridan-to'g'ri ruhiy mazmun-ma'no bilan berilishi qiyin bo'ladi.

Bunday hollarda tarjimon quyidagi strategiyalardan foydalanadi:

tushuntiruvchi tarjima (explanatory translation), ya'ni realiyaning mazmuni tushuntirish bilan ochib beriladi, bu usulda asl tilning madaniy elementlari tushunarli bo'lmagan yoki bevosita ekvivalenti yo'q bo'lgan hollarda, tarjimon matnga tushuntiruvchi ta'rif kiritadi. Masalan, "sumalak" atamasi ingliz tilida "a sweet paste made from wheat sprouts, traditionally prepared for Navruz holidays" shaklida tavsiflanishi mumkin. Bu usul matnning semantik va madaniy to'liqligini saqlashga yordam beradi, lekin ba'zan matn tushunarligini pasaytirishi mumkin;

transkripsiya yoki transliteratsiya, ya'ni o'zak shaklini fonetik yoki grafik jihatdan moslashtirish orqali berish. Bunday strategiyada tarjimon madaniy birlikni qoraqalpoq tilida yoki boshqa maqsadli til o'quvchisiga aytilish yoki yozish orqali yetkazishga intiladi. Masalan, ingliz tilidagi "pub" so'zi tarjimada "pab" shaklida transliteratsiya qilinadi. Bu usul, ayniqsa, an'anaviy yoki brendga aylangan nomlar, uy nomlari, shaxs nomlari, diniy va tarixiy nomlarda qo'llaniladi. Transliteratsiya matnga begonalik hissini qadrlashi mumkin bo'lsa-da, u realiyaning tub madaniy muhitini saqlab qolishga xizmat qiladi;

funksional analog topish, ya'ni o'quvchi uchun ma'noli va tushunarli boshqa madaniy birlik bilan almashtirish kabi strategiyada tarjimon tub madaniy birlik o'rniga maqsadli auditoriyaga yaqin va semantik jihatdan teng tushunchani tanlaydi. Masalan, ingliz tilidagi "Thanksgiving" bayrami o'rniga qoraqalpoq tilida "Mahsulot bayrami" yoki "Shukirana" so'z birikmasi qo'llanilishi mumkin. Bunda tub konsept yo'qoladi, lekin o'quvchi uchun tushunarli va tanish madaniy elementga almashtiriladi. Bu usul kommunikativ sadoqatni ta'minlasa-da, ba'zi hollarda madaniy konnotatsiyaning yo'qolib ketish xavfini keltirib chiqaradi;

kontekstual moslashtirish, ya'ni realiyaning mantiqiy va madaniy kontekstda o'rinli tushuntirilishi; bu usulda tarjimon matnda uchraydigan realiyani bevosita tarjima qilish o'rniga, uni o'quvchiga tanish va madaniy kontekstdagi vaziyatga uyg'un holatda taqdim etadi. Bu strategiya ayniqsa, asl matndagi realiya o'zbek yoki boshqa til va madaniyatda bo'lmagan hollarda samarali hisoblanadi. Misol uchun, ingliz tilidagi "fourth of July barbecue" so'z birikmasi qoraqalpoq tilida "mustaqillik bayrami" yoki "bayramga mos go'sht" shaklida kontekstga moslashtirilgan holda tarjima qilinishi mumkin. Shu tariqa, tarjimon asl g'oyani saqlagan holda, uni o'quvchining madaniy tajribasiga yaqinlashtiradi.

Realialarni to'g'ri va aniq tarjima qilish tarjimonning nafaqat lingvistik, balki madaniy savodxonligi, kommunikativ kompetensiyasi va interpretatsion salohiyatiga ham bevosita bog'liq. Chunki bu birliklar matnning milliy ruhini, tarixiy-madaniy mazmunini va mazmuniy-estetik xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Ular tarjima jarayonida o'quvchiga bu madaniyatga xos muhitni yetkazish yoki aksincha - begonalik hissini kamaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday birliklarni noto'g'ri yoki soddalashtirib berish matnning funksional, estetik va semiotik qatlamlariga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, tarjimon madaniy realialarni adekvat tushunib, ularni madaniyatlararo kontekstda ekvivalent shaklda ifoda etmasligi kerak. V.N. Komissarov bu borada shunday fikr bildiradi: "Realialarni tarjima qilishda tarjimon madaniyatlararo mediator sifatida har ikki auditoriya kutgan ma'noni uyg'unlashtira olishi kerak."

Shunday qilib, badiiy tarjimada madaniy komponentlarning har biri tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi. Har bir madaniy birlikni tarjima qilishda lingvistik uyg'unlik bilan bir qatorda madaniy ekvivalentlik, emotsional konnotatsiya, kontekstual uyg'unlik va kommunikativ sadoqat kabi mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tarjimon nafaqat

til darajasida, balki madaniyat, mentalitet, konseptual xarita va ijtimoiy-madaniy kodlarni ham inobatga olgan holda ishlashi zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Erimbetova Sh.A. Lingvomádeniyattanıw baǵdarınıń awdarmatanıwdaǵı áhmiyeti, metodları hám ornı. Вестник КГУ им. Бердаха. № 3 (70) 2025
2. Safarov Sh.S. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. Monografiya. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2019. – B. 85-87.
3. Комиссаров В. Н. *Современное переводоведение*. – М.: ЭТС, 2002. – С. 163.